XORAZM VILOYATI TUPROQQAL'A TUMANI HOKIMINING

QARORI

220400, Tuproqqal'a tumani, Pitnak shahri, Komiljon Otaniyozov ko'chasi 1-uy, tel: 30-54-678, faks: 30-53-315

2025-yil 4-noyabr 168-12-218-Q/25 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil 9-sonli, 320-modda) qonunning 6-moddasi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunning 39- moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi nizom (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 2017-yil 11-dekabrdagi 09/17/965/0393-sonli)da talablari ijrosini ta'minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-sonli Farmoniga asosan:

xo'jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo'lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag'al oilalar reyestridagi oilalarning a'zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan shaxslar uchun ish o'rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo'lgan tashkilotlarga nisbatan qo'llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining tuman hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 88 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 33 foiz (29 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 5 foiz (4 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 52 foiz (46 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 3 foiz (3 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 5 foiz (4 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 2 foiz (2 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-sonli qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Tuproqqal’a tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Z.D.Raxmanov):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Ushbu qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.B.Sultanov zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Jimalyazov**

Tuproqqal’a tumani hokimining
2025-yil 4-noyabrdagi
168-12-218-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuproqqal’a tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari *(byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar)* **tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli RO‘YXATI**

№	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
				Nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxs-lar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxs-lar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasa-laridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
J A M I :			**2026**	**47**	**80**	**27**	**4**	**40**	**3**	**4**	**2**
1	"TUPROQQAL’A TUMAN POLITEXNIKUMI" DAVLAT MUASSASASI	200208952	79	3	3			2		1	
2	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 4-SONLI DAVLAT	201730146	67	2	2			2			

	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI										
3	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 2-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	202257693	131	2	5	2		2	1		
4	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 1-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O'QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203296574	58	3	1			1			
5	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 21-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O'QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203383538	89	4	2			2			
6	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 4-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203407742	102	3	4		1	2			1

7	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 9-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203415986	67	0	4	2		2			
8	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 8-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	203844912	92	0	4	3		1			
9	"TUPROQQAL`A TUMAN SPORT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	204740360	49	2	1			1			
10	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 6-SONLI AYRIM FANLAR CHUQUR O'QITILADIGAN SINFLARI MAVJUD UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881224	54	1	2	1		1			
11	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 7-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881232	46	0	3	2		1			

12	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 12-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881256	36	0	2	1		1			
13	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 13-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881264	31	0	2	1		1			
14	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 14-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206881271	34	0	2	1		1			
15	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 17-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206884520	57	1	3	1		2			
16	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 18-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206884537	71	1	4	1	1	1	1		

17	"XORAZM VILOYATI MADANIYAT BOSHQARMASI TUPROQQAL’A TUMANI 6-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206976263	39	1	1	1					
18	"TUPROQQAL`A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 19-SONLI UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	206995098	89	0	5	3		1		1	
19	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 5-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207008033	57	1	3	1		2			
20	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 7-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207009127	69	2	3	1		2			
21	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 11-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207098026	88	2	4	1	1	2			

22	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 2-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207098414	36	1	1			1			
23	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 6-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207098421	47	2	1			1			
24	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 15-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207137024	24	0	1	1					
25	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 12-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207137094	27	1	1			1			
26	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 11-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	207249311	62	0	3	2		1			

27	"TUPROQQAL'A TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 20-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI" DAVLAT MUASSASASI	207324227	85	5	1			1			
28	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 1-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	305545149	26	0	1	1					
29	"TUPROQQAL'A TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMIGA QARASHLI 9-SONLI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI" DAVLAT MUASSASASI	305545156	56	1	3	1		2			
30	"CHAPQIRG'OQ AMUDARYO IRRIGATSIYA TIZIMLARI HAVZA BOSHQARMASI TUPROQQAL'A TUMANI SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DAVLAT MUASSASASI	307302489	30	1	1			1			
31	"XORAZM VILOYATI TUPROQQAL`A TUMANI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI" DAVLAT MUASSASASI	307302536	131	5	4		1		1	1	1
32	"TUPROQQAL'A TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH KORXONASI" DAVLAT MUASSASASI	307319134	97	3	3			2		1	

Tuproqqal’a tumani hokimining
2025-yil 4-noyabrdagi
168-12-218-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Tuproqqal’a tumanida 2026 yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (*davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno)*** tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli**
RO‘YXATI

№	Tashkilot nomi	Tashkilot STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:				
				Nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		Nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
J A M I :			**1147**	**24**	**8**	**2**	**0**	**6**	**0**	**0**
1	"XORAZM SHAKAR" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	200208952	927	23	4	1		3		
2	"NEW BEST STYLE" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	201730146	220	1	4	1		3		